

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 3



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Тўхтасинов Илҳом**  
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

**Главный редактор:**  
**Тухтасинов Илхом**  
д.п.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Editor in Chief:**  
**Tuhtasinov Ilhom**  
DSc. Professor (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўғли**  
ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Бокиева Гуландом**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**  
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**  
ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммаед**  
к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Ҳамидулла**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддиқова Ирода**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**  
ф.ф.д. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
масбул котиб, PhD, доцент  
(Ўзбекистон)

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Узбекистан)

**Якуб Умар оглы**  
д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бакиева Гуландом**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Миннуллин Ким**  
д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Керимов Исмаил**  
д.ф.н., профессор (Россия)

**Джураев Маматкул**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Куренов Рахыммаед**  
к.ф.н. (Туркменистан)

**Кристофер Джеймс Форт**  
Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Мирзаев Ибодулло**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Балтабоев Хамидулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Дустмухаммедов Хуршид**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Лиходзиевский А.С.**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Сиддикова Ирода**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Шиукашвили Тамар**  
д.ф.н. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
отв. секретарь, PhD, доцент  
(Узбекистан)

## EDITORIAL BOARD

**Bakhtiyor Nazarov**  
academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogli**  
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**  
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**  
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**  
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**  
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**  
University of Michigan (USA)

**Umarkhodjaev Mukhtar**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Dustmuhammedov Khurshid**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**  
Doc. of philol. scien. (Georgia)

**Turobov Bekpulat**  
PhD Ass. prof. Senior Secretary  
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000


<b>1. Yulbarsov Ochilbek Obidjon o'g'li</b> KORPUS TAHLILI ASOSIDA KORONAVIRUS (COVID-19) SO‘ZINING LEKSIK-SEMANTIK TADQIQI.....	5
<b>2. Jabborov Erkin Xolliyeovich</b> TASVIRIY SAN‘AT TA‘LIMIGA OID KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MAZMUNI.....	10
<b>3. Шукурова Азиза Хайруллоевна</b> САРИОСИЁ ТОЖИК ЛАҲЖАЛАРИДА ТУРКИЙ СЎЗЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА УЛАРНИНГ ЛЕКSIK-SEMANTIK ХУСУСИЯТЛАРИ.....	15
<b>4. Ювашева Шоира Махамадовна</b> ПЕРЕВОДЧЕСКИЙ АСПЕКТ КУЛЬТУРНО-МАРКИРОВАННОЙ ЛЕКСИКИ.....	21
<b>5. Tagaeva Sayyora Ulashevna, Urazqulova Aziza</b> HOZIRGI ZAMON NEMIS TILI LINGVO DIDAKTIK SISTEMASIDA INGLIZ TILIDAN O‘ZLASHTIRILGAN ATAMALAR VA ULARNING STRUKTUR SEMANTIK ХУСУСИЯТЛАРИ.....	26
<b>6. Лизахан Уразмбетова</b> АКТЁРЛЫҚ ШЕБЕРЛИГИН ӨЗЛЕСТИРИЎДЕ ГҮЗЕТИЎ ШЫНЫҒЫЎЛАРЫ.....	31
<b>7. Yuldasheva Dilshoda Musayevna</b> FRANZ BOAS, EDWARD SAPIR AND LEONARD BLOOMFIELD AS FOUNDERS OF AMERICAN STRUCTURALISM.....	35
<b>8. Nuritdinova Shahnoz Sadridinovna</b> BOLALAR SHE‘RIYATIDA BADI‘Y IFODA AN‘ANASI VA TAKOMILL.....	40
<b>9. Комила Мамадиёрова</b> ПОЭТОНИМЛАРНИНГ ФУНКЦИОНАЛ ВАЗИФАЛАРИ.....	47
<b>10. Минхожиддин Ҳожиматов</b> МИЛЛИЙ ХАРАКТЕР ШАКЛЛАНИШИДА ҚАДРИЯТ, АНЪАНАЛАР ВА ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ.....	53
<b>11. Shukurov Uktam Baxodirovich</b> EXPLORING THE IMPACT OF MOTIVATION AND PROFICIENCY ON PRAGMALINGUISTIC AWARENESS IN SECOND LANGUAGE LEARNING.....	63
<b>12. Лазиза Джиянбаева</b> РАНГЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ СТЕРЕОТИПЛАРНИНГ ТИЛ БИРЛИКЛАРИГА ТАЪСИРИ.....	67
<b>13. Khalova Maftuna Abdusalomovna, Kayumova Gulsanam Sadridin qizi</b> IN THE STORY "HELP TELEPHONE" BY KHAYRIDDIN SULTONOV. REFLECTION OF LIFE EVENTS.....	75
<b>14. Shamsiyeva Gulshoda Asliddin qizi</b> LINGUISTIC BASIS OF PARALLEL CORPUS IN THE CREATION OF MT MODELS FOR UZBEK-ENGLISH LANGUAGES.....	81
<b>15. Nazokat Kuvondiq qizi Sadullayeva, Barnoxon Abdulazizovna Pulatova</b> ABDULRAZZOQ GURNAHNING “PARADISE” (“JANNAT”) ROMANIDA DINIY VA DUNYOVIY MUSHTARAKLIK.....	87
<b>16. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o'g'li</b> ALFRED DE MYUSSENING “ASR FARZANDINING DIL IZHORI” ASARINING POETIK TAHLILI.....	92
<b>17. Абулкасимова Нодира Мирзакаримовна</b> ОСОБЕННОСТИ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ЭВФЕМИЗМОВ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ.....	96
<b>18. Gulchehrahon Rahmanova</b> OILADA BOLALAR MULOQOT MADANIYATINI TARBIYALASHNING MAVJUD HOLATI.....	102

<b>19. Bumatova Aidaxon Merganovna</b> HOFIZ: PIRI MUG‘ON BANDASI.....	108
<b>20. Фозилжон Шукуров</b> ТЕМУРИЙ ҲУКМДОРЛАР ДАВРИДА МОВАРОУННАҲР АДАБИЙ МУҲИТИНИНГ РИВОЖИ.....	113
<b>21. Mirzoyeva Yulduz Yusup qizi</b> BADIY JANRLAR TAHLILI (“MING BIR KECHA” ASARI SHE’RIY MATNLARI ASOSIDA).....	120
<b>22. Xasanova Gulrux Xayrullayevna</b> NOVERBAL VOSITALARNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI.....	125
<b>23. Озодаҳон Мусаева</b> ЭРКИНОЙ СУЛТОНОВА ШЕЪРЛАРИНИНГ ЛИНГВОСТИЛИСТИК ТАДҚИҚИ.....	129
<b>24. Умигой Хушвактова</b> ЁЗУВЧИ ЗУЛФИЯ ҚУРОЛБОЙ ҚИЗИ АСАРЛАРИДА ПАРАЛИНГВИСТИК ВОСИТАЛАР.....	139
<b>25. Минхожиддин Хожиматов</b> ҲАЛИМА ХУДОЙБЕРДИЕВА ШЕЪРИЯТИДА МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ТУЙҒУСИНИНГ ФАЛСАФИЙ – ТАРИХИЙ ТАЛҚИНИ.....	146
<b>26. Исмоил Хусаинов</b> САМАРҚАНД БОЛАЛАР ФОЛЬКЛОР РАҚСЛАРИНИНГ МУСИҚА САЊЪАТИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ.....	154
<b>27. Abdullayeva Shahnoza Rahimjon qizi</b> FUNCTIONAL ANALYSIS OF REPRESENTATION AND DISTRIBUTION OF THE MEANING IN CONTEXT.....	161
<b>28. Saidova Rayhon Bekmurodovna</b> QADIMGI SHARQ VA G‘ARB ADABIYOTIDA SHE'RSHUNOSLIK HAQIDAGI QARASHLARNING O‘ZIGA XOSLIK LARI.....	166
<b>29. Ачилова Озода Фарходовна</b> БУЙРУҚ МАЗМУНИДАГИ МАҚОЛЛАРИНИНГ МАЗМУН КЎЛАМИ ВА ИФОДА УСУЛЛАРИ (япон ва ўзбек тиллари мисолида).....	171
<b>30. Sajid Valiya Valappil</b> O‘ZBEKISTONDAGI Z AVLODINING KUNDALIK HAYOTIDA TIL DINAMIKASI TAHLILI: KOD ALMASHTIRISH VA JARGON (SLENG).....	176
<b>31. Soatova Yulduz</b> BOBUR SHE’RIYATIDA “GO‘ZALLIK” TUSHUNCHASINING YUZ TASVIRI ORQALI IFODA ETUVCHI VOSITALARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI.....	183
<b>32. Malika Islamova</b> TELEVIDENIYEDA TELEPRODYUSERNING FUNKSIYASI: ASOSIY YO‘NALISHLARI, IJODIY HAMDA MOLIYAVIY BOSHQARUVI.....	189
<b>33. Nurmuxammedov Yusuf Shakarboyevich</b> TURLI TIZIMLI TILLAR FRAZEOLGIK BIRLIK LARIDA GAVDALANGAN “TAQDIR” KONSEPTINING KONSEPTUAL TAHLILI.....	194



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Soatova Yulduz**Termiz tumani 29-umumta'lim maktabi  
ona tili va adabiyot o'qituvchisi**BOBUR SHE'RIYATIDA "GO'ZALLIK" TUSHUNCHASINING YUZ TASVIRI ORQALI  
IFODA ETUVCHI VOSITALARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI** <https://doi.org/10.5281/zenodo.13919127>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada mumtoz badiiy matnlarda "go'zallik" tushunchasining ifodalovchi so'zlar leksik-semantik jihatdan tahlilga tortilgan. Badiiy matnda uchraydigan "go'zallik" tushunchasini ifodalovchi so'zlarni leksik-semantik tahlilni amalga oshirishda so'zlarning ma'nosida ro'y berayotgan o'zgarishlarga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib berilgan. Xususan, Boburning lirik asarlari misolida aynan yuz go'zalligini ifodalashda qo'llangan so'zlarning statistikasi ham keltirilgan. Yuz tasvirini yuzaga keltirishda so'zlarning o'z ma'nolaridan ko'ra ularning hosila ma'nolaridan ko'proq foydalanilganligiga guvohi bo'lish mumkin. So'zlarning hosila ma'nolari yordamida metafora, personifikatsiya, gradatsiya yuzaga kelgan.

**Kalit so'zlar:** go'zallik tushunchasi, gradatsiya, personifikatsiya, metafora, o'xshatish, poetik nutq, astronomlar

**Соатова Юлдуз**29-общеобразовательная школа  
Термезского района учитель  
родного языка и литературы**ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЫРАЗИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ ЧЕРЕЗ  
ОБРАЗ ЛИЦА КОНЦЕПТА «КРАСОТА» В ПОЭЗИИ БАБУРА****АННОТАЦИЯ**

В данной статье лексически-семантически анализируются слова, выражающие понятие «красота» в классических художественных текстах. Показано, что важно обращать внимание на происходящие изменения. В частности, на примере лирических произведений Бабур приведена статистика слов, описывающих красоту лица. Установлено также, что при создании данного образа автор использовал больше производных значений слов, чем их собственные значения. Эти значения в словах были сделаны невидимыми методами метафоры, персонификации и градации языкознания.

**Ключевые слова:** красота, градация, персонификация, метафора, сравнение, поэтическая речь, астрономы.

Soatova Yulduz

29th general education school of Termiz district  
native language and literature teacher**LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF EXPRESSIVE MEANS THROUGH THE FACE  
IMAGE OF THE CONCEPT OF "BEAUTY" IN BABUR'S POETRY****ANNOTATION**

In this article, the words expressing the concept of "beauty" in classical literary texts are analyzed lexically-semantically. It has been shown that it is important to pay attention to the changes that occur. In particular, the statistics of the words used to describe the beauty of the face are given in the example of Babur's lyrical works. It was also determined that the creator used more derived meanings of words than their own meanings in creating this image. These meanings in words were made invisible through the methods of metaphor, personification, and gradation of linguistics.

**Key words:** beauty, gradation, personification, metaphor, simile, poetic speech, astronyms

**Kirish**

Dunyo tilshunosligida badiiy asar tili va u bilan bog'liq til sathi birliklarining poetik vazifalarini tavsiflash ustuvor vazifa bo'lib bormoqda. Har bir til sathi birliglarini muayyan adib ijodidagi poetik xususiyatlarini aniqlash, lisoniy hodisalarning nutqiy voqelanish shakllarini asoslash muhim masalalardan hisoblanadi. Xususan, Bobur lirik asarlarida qo'llangan so'zlar leksik-semantik qirralari bir qator filologlar tomonidan tahlilga tortilgan bo'lsa-da, ammo bugungi kunga qadar o'zbek tilshunosligida ijodkorning she'riy asarlarida "go'zallik" tushunchasi tadqiq etilmagan. Biz ushbu maqolada she'riy matnlarda yuz tasviri orqali ushbu tushunchasini ifodalovchi so'zlarni leksik-semantik jihatdan tadqiq qilib o'tamiz.

**Adabiyotlar tahlili**

Go'zallik – uyg'unlik va mukammallikni ifodalovchi estetik kategoriya bo'lib, insonga ijobiy his, zavq berishi bilan xarakterlidir. O'zbek tilshunosligida "go'zallik" tushunchasiga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar N.Hoshimova, G. Rahimova[1], Z.Marufova[2], M. Shukurovlar[3] mumtoz badiiy matnlarda va ingliz va o'zbek xalqlarining frazeologik birliklardagi tabiat go'zalligi, ayol go'zalligi, erkakka xos go'zallik belgilari, bolalar go'zalligi lisoniy tadqiq etilgan.

Bobur ijodida yuz tasviri o'simliklar: *nasrin, gul, lola, xazon*; astronomlar: *oy, quyosh*; bayram nomlari: *Navro'z, Iyd*; gastronomik birliklar: *sut*; antonomaziya: *Eram gulzori* vositasida ochib berilganligi guvohi bo'lishimiz mumkin.

**Metodologiya****Fitonimlar vositasida yuz tasvirining ifodasi**

Nasrin – forscha oq xushboy gul[4] ma'nosida qo'llanib o'xshatish uchun timsol bo'lib kelgan. Bu o'xshatish hodisasida fikr qaratilgan so'z – *yuz*; o'xshatish vositasi: *qatnashmagan*; o'xshatish asosi: *nasrin gulining "oq rangi, nasrin gulining "nozikli", "yoqimlili"*. O'xshatishning yana bir tarkibiy qismi: o'xshatishdan maqsad – ma'shuqa yuziga bo'lgan emotsional bahoni ifodalash. O'xshatishdan maqsad – "...o'xshatish orqali ilgari surilayotga motivni tashkil qiluvchi uzv bo'lib, maqsad uzviga xos xususiyatlar lingvistika va poetikaning tutashuvini taqazo qilishi bilan xarakterlanadi. Ayni shu uzv o'xshatish hodisasining mohiyati ochib beruvchining vujudga kelishidan kuzatilayotgan maqsadni tushuntiruvchi tarkibiy qism sanaladi. Garchi bu uzvning o'xshatish tarkibida shakliy ko'rsatkichi bo'lmasada, u o'xshatish hodisasining o'zini mantiqan tashkillashi, boshqarishi jihatidan ahamiyatlidir. *Maqsad* o'xshatishni tashkillovchi uzv sifatida *asos, timsol, vosita, belgi* deb nomlangan to'rt uzv ustida turadi[5]:

*Ey yuzi nasrin, qomati shamshod,*

*Necha qilursen jonima bedod?*

(*"Ey yuzi nasrin, qomati shamshod" g'azali*)



Boburgacha ham **gul leksemasi** go‘zallik tarifida eng ko‘p ishlatiladigan birlikdir. Chunki gulning tashqi ko‘rinishi va xususiyatlari (hidi, rangi, shakli, nozikligi, parvarishga muhtoligi, insonga zavq berishi) subyekt idrokidagi go‘zallik andazalariga mos tushadi:

*To yuzingning vasfini Lutfiy bitti daftari*

*Bo‘ldi ranginu nasimi **gul** kelur avroqidin*

*(Lutfiy, Dilbaro sindurma ahdu...)*

Baytda yor tavsifi bitilgan daftar gul rangiga kirib, varoqlaridan gul hidi kelishi tavsiflanadi. Go‘zallik ifodalashning bu usulida rang hamda hid belgisi orqali uyg‘unlashtirilgan *yuz va gul* odam va o‘simlikka oid leksemalarning o‘zaro assotsiativ-verbal ifodasiga asos bo‘lmoqda.

Yuz tasvirida qo‘llanuvchi **gul** leksemasi mumtoz adabiyotimiz vakillarining har birining ijodida juda faol fitonim bo‘lib, metafora hosil qilishda badiiy adabiyotda, ayniqsa, poeziya uchun xos bo‘lgan an‘anaviy poetik so‘z hisoblanadi:

*Xatti mushkinmudurur **gul** yuzida,*

*Yo suman ustida rayhon ko‘runur*

*(“Yuzida ul labi xandon ko‘runur” g‘azali)*

Gul so‘zi yuz tasviridan tashqari o‘simlik, ma‘shuqa tushunchalarining ifodasi uchun qo‘llanilgan:

*To uzuldi ko‘nglum ul oy qaddidin afsurdadur —*

*Kim, uzulgan g‘uncha **gul**ning shoxidin pajmurdadur.*

*(“To uzuldi ko‘nglum ul oy qaddidin afsurdadur” g‘azali)*

Metafora orqali ma‘shuqa ma‘nosining ifodalab kelishini quyidagi bayt misolida ko‘rishimiz mumkin:

*Ne yerda bo‘lsang, ey **gul**, andadur chun joni Boburning,*

*G‘aribingg‘a tarahhum aylagilkim, andijonidur.*

*(“Bahor ayyomidur, dog‘i yigitlikning avonidur” g‘azali)*

Mashuqa fe‘l atvoridagi ayrim jihatlarida tasvirida ham gul so‘zi vositasida ham

*Sen **gul** kibi to g‘amzadasen xusnunga mag‘rur,*

*Bulbul kibi men g‘amzadamen husnunga hayron.*

Shoirning “Xurshid yuzung birla bu...” g‘azalidan olingan misralarda oshiq va ma‘shuqani gul va bulbul deyish bilan ma‘shuqadagi go‘zallikning ta‘kidi emas balki, yordagi *kibr, manmanlik* kabi fazilarlarni ifodalashga xizmat qilgan. Oshiqning ma‘shuqa visolidagi intizorlikni aniqroq tasvirini kitobxon ko‘z oldiga yaqqol keltirish uchun bulbul zoonimini keltirgan. Gul semamasi tarkibida “chiroyli”, “nozik”, “parvarishga muhtoj” kabi semalari mashuqaga ishora qilsa; bulbuldagi “gulga mushtoqlik” oshiqqa ishora qiladi.

“**Lola** – 1) *bot.* Loladoshlar oilasiga mansub, yirik, chiroyli ko‘p yillik o‘simlik; manzarali ekma gul va uning qizil, sariq yoki targ‘il guli; 2) *ko‘chma poet.* lola rangli, qiz, qirmizi tarzida izohlanib kelgan”[6]. Bobur ijodida qo‘llangan lola so‘zlarini har ikkala ma‘noni yuzga chiqarganini ko‘rishimiz mumkin:

*Gul yuzung erur **lola**, vale, **lolai** xudro‘y,*

*Tor og‘zing erur g‘uncha, vale, g‘unchai xandon.*

*(“Xurshid yuzung birla bu kun, ey maxi tobon,”)*

Baytda shoir gradunomiya vositasida go‘zallik tasvirini kuchaytirishga erishgan:

Yuzing →gul→lola→lolai xudro‘y

Lola mashuqadagi ikki belgiga ishora qilib kelgan, birinchisi, yuzdagi go‘zallik belgisi “qizillik” belgisini, ikkinchisi, *Lolai xudro‘y* – yovvoyi lola. Bu so‘z birikmasi ma‘shuqaning xarakter-xususiyatini: “oshiqqa ro‘y-hushlik bermaslikka” ”hurkaklikka” ishora qilib kelmoqda.

Shuningdek, g‘azallarda faqat ma‘shuqa yuzi emas balki oshiq yuzi ham mohirlik bilan tasvirlangan bo‘lib, Bobur o‘zining “*Xazon yafrog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim*” g‘azalida xazon semamasi tarkibidagi turli xil semalaridan ustalik bilan qo‘llay olgan:

***Xazon** yafrog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim,*

*Ko‘rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrai zardim,*

Bu misralarda xazon leksemasining sememasidagi sariq semasi orqali oshiq yuzi rangiga ishora qilgan.

Bobur sinonimlar qoʻllashda juda mahoratli boʻlib, xususan, “osmon jismi”, “yorugʻlik manbai” quyoshning - *kun, oftob, xurshid*; oyning - *hilol, qamar*; yulduzning - *anjum* kabi soʻzlar astronomik nom bildirish bilan bir mavzuviy guruhni tashkil qilishdan tashqari, Bobur ijodida goʻzallik belgisini koʻrsatuvchi maʼnaviy – guruhga birlashadi. “*Yo qoshing yangligʻ..*” gʻazalida goʻzallik tasvirini yuzaga keltirish uchun oy, quyosh, yulduz kabi osmon jismlarini birgina baytda jamlam ajoyib tasvir yaratadi:

*Bobur, ul oyniing quyoshdek orazi hijronida*

*Tonggʻa tegru har kecha yulduz sanorimnimu dey?*

(“*Yo qoshing yangligʻ egilgan jismi zorimnimu dey?*” gʻazali)

### **Astronimlar orqali yuz tasvirining ifodasi**

Mumtoz badiiy matnlarda ham bu kabi oy, quyosh, yulduz leksemalari yuz goʻzalligi uchun timsoli boʻlib keluvchi koʻplab misralarni koʻrishimiz mumkin. “Oy desa oyday, kun desa, kunday”, – oy yuzli kabi frazemalarning paydo boʻlishi bunga yorqin misoldir:

*Ne ajab yetsang Atoiy bir tun ul oy vaslina*

*Kim oʻtar yetti falaktin har sahar ohing saning*

(*Atoiy ”Ey saodat matlaʻi.....” gʻazali*)

“Koʻpchilik shoirlar yor yuzini oyga oʻxshatsalar, ayrim shoirlar yor yuzini oyga oʻxshatmaydilar: oyniing yuzida dogʻi bor. Bu dogʻ oyga hazrati Jabroil qanotini urganda, qanoti tekkan joy qorayib qolgan[7] emish. Shoirlar mana shu dogʻ detalidan yangi badiiy tasvir yaratishda mohirona foydalanadilar:

*Qullaringdandir habashdan oʻlja tushgan toʻlun oy,*

*Tona olmas belguluk, chun yuzida tamgʻasi bor.*

(*Gadoiy “Ulki jannatdek...” gʻazali*)

Bu oʻrinda *habash* – qoralik timsoli sifatida tun ramzini ifodalagan, oy (oʻz maʼnosida) mahbubaning habashdan olgan oʻljasi, u buni inkor etolmaydi, chunki yuzida tamgʻasi bor. Baytni tushunish uchun qadimda qullarga tamgʻa bosish kabi odatdan habardorlik talab etiladi va matnda oy yuzidagi dogʻga ishora ham bor. Matn mazmunidan – *Madomiki, koʻkdagi oy ham yorga qul ekan, demak, goʻzallikda uning tengi yoʻqdir*, degan mazmun kelib chiqadi[2]. Bobur ijodiga mansub sheʼriy asarlarda ham oy uch xil maʼnolarda: 1) osmon jism (oʻz maʼnosida); 2) oʻlchov birligi (koʻchma maʼnoda); 3) *mashuqa, yuz, qosh* timsoli (oʻz va koʻchma maʼnoda):

**Koʻk vusmada ul oy qoshi goʻyo xayoldur,**

*Yo oy boshida koʻkta koʻrungan hiloldur.*

(“*Koʻk vusmada ul...” gʻazali*)

*Koʻk* va *oy* soʻzlari oʻz maʼnosidan hamda bosh maʼno taʼsirida yuzaga kelgan hosila manolaridan mohirlik bilan foydalanilgan. Bosh maʼno taraqqiyoti natijasida shakllangan maʼnolar hosila maʼno deyiladi[8]. Masalan, yuqoridagi sheʼriy misralarda koʻk-osmon, unga tegishli rang aloqadorlik (metanomiya) asosida yuzaga kelgan. *Oy* soʻzi soʻzi bilan ham xuddi shu holatni koʻrishimiz mumkin: *oy* “yerning tabiiy yoʻldoshi” ni bildiruvchi leksik maʼnoda va shu “yoʻldoshning yerni bir aylanib chiqishi muddati” hosila maʼnosida qoʻllangan. Shuningdek, oyniing maʼnodoshi *hilol* soʻzidan soʻzlar takroriga yoʻl qoʻymaslik va baytda maʼshuqa goʻzalligini boʻrtirish madsadida foydalanilganini sezish mumkin. Shoir aynan maʼnoni kuchaytirish uchun hilolning “yangi” semasiga urgʻu bergan. Quyidagi toʻrtlikda *hilol*ning yana bir boshqa maʼnosi, yaʼni mashuqaning hiyla qayrilgan qoshi semasini tashimoqda:

*Shoxim, sanga maʼlum emastur, ne qilay?*

*Ohim sanga maʼlum emastur, ne qilay?*

*Men yuzu qoshing dermenu sen — badru hilol,*

*Mohim, sanga maʼlum emastur, ne qilay?*

Bobur birgina gʻazalning oʻzida oy soʻzidan ikki maqsadda – maʼshuqa va uning yuzi tasvirida foydalangan:

*Yangi oy yor yuzi birla koʻrub el shodu xurramlar,*



*Manga yuzu qoshingdin ayru bayram oyida g‘amlar  
Mening bu tori mo‘ yanglig‘ tanimg‘a toblar soldi  
Ul o‘yning yuzida sunbul kibi zulfidag‘i xamlar.*

(“Yangi oy yor yuzi birla ko‘rub el shodu xurramlar” g‘azali)

Mumtoz ijod namunalarida mashuqa yuzining porloqligi, oqligi, go‘zalligi, nurliligi, sog‘lomligini ifoda etishda quyosh (to‘liq va matniy ma‘nodoshlari)dan unumli foydalanilgan. Mumtoz badiiy matnlarda yor yuzi – *oppoqlik, nurlilik* belgilari orqali *oyga; go‘zalligi ko‘zni qamashtiruvchi* sifati bilan quyoshga qiyoslanadi[2]. Bobur ijodi ham bundan mustasno emas:

*Ey, oy yuzung ollida quyosh sharmanda,  
Shirin so‘zu yaxshi xulqungga men banda,  
Hijronda necha noma bila so‘zlashaling,  
Yo sen beri kel, yo borayin men anda.*

(Ruboiy)

*Quyosh va sharmanda* bu ikki leksemanining sintagmatik aloqasidan ham personifikatsiya yuzaga kelgan. Bunda metafora orqali ma‘shuqa yuzi go‘zalligi quyoshdan ortiq ekanligi ta‘kidi kuchaytirilgan. Personifikatsiya – metaforani hosil qiluvchi ma‘noning jonli referanti bilan hosila ma‘noning jonsiz referanti o‘rtasidagi qiyosga, o‘xshashlikka asoslangan ko‘rinishidir. Metaforaning bu ko‘rinishidan ham so‘zning leksik ma‘no hosila ma‘no referanti bilan sirtqi belgi, harakat yoki holat hususiyati vazifasi kabilar doirasida o‘xshash bo‘laveradi. Ammo bu o‘xshashlik hosila ma‘no referantiga jonli holat baxsh etishi orqal yuzaga chiqadi. Mana shu holat personifikatsiya uchun asosdir[9]. “Davo qilmoq”, pushaymon birikmasi “xurshidning yor yuziga go‘zallik jihatidan tengalasha olmaslik” hosila ma‘noni yuzaga chiqargan.

Yana bir baytda Bobur quyoshning *zavol – yo‘qolish, yo‘q olish, botish* harakati bilan ma‘shuqa yuz go‘zalligiga tenglasha olmasligi, uning oldida nuqson sifatida ifodalagan:

*Ne nav‘ o‘xshasun yuziga oftobkim,  
Oning zavoli borduru bu bezavoldur.*

(“Ko‘k vusmada ul oy qoshi go‘yo xayoldur” g‘azali)

*Yuzi xurshidi, tishi durridin ayru jismda  
Qolmadi bir zarra yerkim, tishdin afgor etmadim*

(“G‘ayr toshi zaxmidin dardimni izhor etmadim” g‘azali)

Muallif o‘z she‘rlarida ortiqcha takrorlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun quyosh so‘zining poetik nutqqa xos shakli, *xurshid* so‘zining sakkiz maratoba faqat yor yuzi tasviri uchun qo‘llanganligi ko‘rishimiz mumkin.

*Xurshid yuzung birla bu kun, ey maxi tobon,*

*Da‘vo gar etar bo‘lg‘usi kun, so‘ngra pushaymon.  
Sen gul kibi to g‘amzadasen husnunga mag‘rur,  
Bulbul kibi men g‘amzadamen husnunga hayron.*

(“Xurshid yuzung birla bu kun, ey maxi tobon”)

### **Bayram nomlari vositasi yuz tasvirining ifodalanishi**

Mumtoz she‘riyatda mashuqa yuzi tavsirida bayram nomlaridan foydalanish kam uchrovchi hodisa bo‘lib, Bobur ijodida ayrim o‘rinlarda uchratamiz.

*Yuzi navro‘ziyu vasli iydini, Bobur, g‘animat tut,  
Ki, mundin yaxshi bo‘lmas bo‘lsa yuz navro‘zu bayramlar*

(“Yangi oy yor yuzi birla ko‘rub el shodu xurramlar” g‘azali)

Yuqorida yor yuzini Navro‘zga, vasli Iydga o‘xshatilishi orqali bu so‘zlar ostida *xursandchilik, ko‘tarinkilik, inson ko‘ngliga zavq-shavq berishi* kabi semalarini tashiganini sezish mumkin.

*Yuzida ul labi xandon ko‘runur,*

*Sutga ko‘p boqsa, bale, qon ko‘runur*

(“Yuzida ul labi...” g‘azali)

Yuqoridagi misrada yor yuzining oqligi, tozaligi, tiniqligini tasvirlashda *sutdan* ustalik bilan foydalanilgani ko‘rishimiz mumkin. Shoirning “*sutga ko‘p boqsa*” birikmasi orqali bevosita yuzga ishorani sezish mumkin.

**Antonomaziya orqali yuz tasvirining ifodalanishi**

“Antonomaziyalar badiiy matnda ijodkorning sub’ektiv munosabatini ifodalab kelib, matnni shakllantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Ular badiiy matnda metaforik ma’noda qo’llanilib, badiiy san’atlar va uslubiy figuralar yaratishga asos bo’ladi. Antonomaziyalarda ishora qilinayotgan tarixiy yoki badiiy faktning mashhur, ya’niko’pchilikka tanish bo’lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ishora qilinayotgan faktning mashhurlik va ma’lumlik darajasi qancha yuqori bo’lsa, uning mohiyat-mazmunini, ko’chma ma’nosini tushunuvchilar doirasi ham shuncha keng bo’ladi[10]”:

*Qading jannat riyozining niholi,  
Eram gulzori xadingning misoli.*

(Fard)

**Eram** – sharq mifologiyasida: yamanda podshoh shaddod tomonidan bunyod etilgan afsonaviy bog’ [11] bo’lib yuqoridagi misralarda yuz tasvirini go’zalligini ifodalab kelmoqda. Bunda bog’ining “chiroyliligi”, “yoqimliligi”, “inson ko’ngliga hush yoqishi”, “insonga xush kayfiyat bera olishi” kabi xususiyatlari tasvir uchun asos bo’lgan.

**Xulosa**

Bobur ijodida “yuz go’zalligi” tushunchasini tasvirlashda astronomlar, fitonim, antonomaziya, shuningdek, shaxsiy hayot tajribasidan kelib chiqqan ibratli xulosalardan keng foydalangan. Bu timsollar o’zi mansub bo’lgan tushuncha maydoni (odam) doirasidan chiqib, belgi-xususiyat ifodalovchi birliklar doirasiga o’tgan va go’zallik tushunchasini ifodalash uchun xizmat qilgan.

**Adabiyotlar:**

1. Hoshimova N., G.Rahimova G. “O‘zbek va ingliz tillarida frazeologizmlarda go‘zallik konseptining ifodalanishi. Innovative Development in Educational Activities. – Farg‘ona, 2023. – B. 127-131
2. Маруфова З. “Мумтоз бадий матнларда «гўзаллик» концептининг вербаллашуви”. Автореф. – Фарғона, 2022. – Б. 18
3. Shukurova M. Turg‘un birikmalarda “ayol” konseptining aktualashuvi. – Ilm-fan (electron jurnal). 2023. – B. 3-4
4. Lapasov J. “Mumtoz adabiy asarlar o‘quv lug‘ati”. – Toshkent, O‘qituvchi, 1994. – B. 144
5. Yakubova M.M. “O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari”. – Toshkent, 2005. – B. 115
6. ЎТИЛ. Л ҳарфи. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006-2008. – Б. 507
7. Jalilov B. “Diniy-ma’rifiy mavzularning badiiy adabiyotdagi talqini”. – Toshkent, 2010. – B.98.
8. Ҳақимова М. Семасиология. – Тошкент, 2008. – Б. 44
9. Mirtojiyev M. M. “O‘zbek tili semasalogiyasi”, 2010. – B. 98
10. Ачилова Р.А. “Значение антономазий в узбекском языке //orienss”, 2022.
11. <https://www.izohli.uz/words/ERAM/>

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000